

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI KURSINI O‘QITISH – TA’LIMY MUAMMO
SIFATIDA**

Qo‘chqarov Ilhomjon Abdubasirovich
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muallif dunyodagi, jahondagi hamda respublikamizdagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta’lim muassasalarida odamlarning qurbon bo‘lishi, ularning salomatligi yoki atrof-tabiiy muhitga ziyon yetkazuvchi, hayot faoiyatiga jiddiy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar, texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlar, terrorizm yoki yong‘in xavfsizligidan ko‘riladigan talofatlar oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: Xavf-xatar, renesans, tahdid, barqaror, hayot faoliyati xavfsizligi, tabiiy va texnogen, yer surilishi, noxush vaziyat.

Introduction

Sayyoramizda ro‘y berayotgan tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, ular keltirishi mumkin bo‘lgan zararlar miqdorini kamaytirish, inson hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni ta’minlash – bugungi kunning o‘ta muhim muammolari sirasiga kiradi. Ta’kidlash lozimki, XXI asr boshlaridanoq mamlakatimizda, xususan, Yangi O‘zbekiston renessansi davrida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining barcha qatlami xavfsiz hayotini ta’minlash masalasi dolzarb muammoga aylanib ulgurdi. Zero, ishlab chiqarish jarayonining misli ko‘rilmagan texnologiyalar bilan ta’minlanishi tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi, aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Rivojlanish bor joyda xavf-xatar doirasi ham kengayib boradi. Shuning uchun ham fuqarolar muhofazasi barqaror rivojlanishga chambarchas bog‘liq.

O‘zbekistonning milliy davlatchiligi va iqtisodiy mustaqilligi, qudratli intellektual salohiyati yuksalishida siyosiy, huquqiy, ma’naviy va ma’rifiy yo‘nalishlarda olib borilayotgan keng qamrovli tadbirlar doirasida aholi va hududlarni turli vaziyatlardan muhofaza qilish, inson xavfsizligi va salomatligini saqlash alohida o‘rin tutadi. Zero, bu soha milliy davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Inson jamiyat va tabiatni o‘z faoliyati bilan rivojlantiruvchi va boshqaruvchisi ekanligini e’tiborga olib, uning hayot tarzini yaxshilash taraqqiyot yo‘lidagi muhim omil hisoblanadi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan fuqarolar hayot tarzini yaxshilash, ularni turli ta’sirlardan saqlash, har qanday holatda muhofaza qilish asosiy maqsad qilib olingan. Hayot faoliyati xavfsizligi tushunchasi o‘z ichiga insonning ishlab chiqarish, yashash va faoliyat olib borishida muhitning xavfsiz bo‘lishi hisoblanib, bunda uning tabiiy va texnogen xususiyatli vaziyatlardan saqlanishi, urush va terrorizm xurujidan himoyalanihi hamda hayoti xavfsizligini ta’minlashi tushuniladi.

Uzoq ajdodlarimiz yashash joylarida o'zlariga xavf solib turgan yirtqichlardan ham xavfli ofatlar bo'lishini tushinib yetishgan, chunki o'sha davrlarda ham zilzilalar, vulqonlar, to'fonlar, suv toshqinlari va boshqa tabiiy ofatlar ularning ojiz va siyrak qabilalariga sezilarli zarar yetkazib turgan. Insoniyat o'tgan davr mobaynidagi sovuq urushlar, tinchlik davrlarida qo'llanilgan zamonaviy qurollar, turli ko'rinishdagi falokat va boshqa muammolarni tahlil qilib, yangi asr bo'sag'asidagi tadbirlarni har tomonlama asoslagan holda belgilab oldi.

XX asr poyonida xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari dolzarb muammoga aylandi, chunki ishlab chiqarishning yuqori taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xavf solib turibdi. Shu bois O'zbekiston xalqi va hududini turli vaziyatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik, ayniqsa, fuqaro mehnati muhofazasini ta'minlash muhim hisoblanadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asarida davlatimizning yaxlitligi, aholi xavfsizligiga tahdid muammolari to'g'risida batafsil to'xtalgan. "Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan"ligini e'tirof etgan.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilarni fuqaro muhofazasiga tayyorlashga alohida e'tibor berish, tabiiy ofatlardan saqlanish muhim ahamiyat kasb etadi. "Tabiiy ofatlar – tabiat inijliklarining ko'rinishlari sifatida paydo bo'ladigan, insonning risolada yashash tarzini o'zgarishiga olib keladigan, shuningdek, ko'pgina vayronaliklarga, insonning moddiy boyliklarini buzilib yo'qolishiga olib keladigan, ba'zida ko'plab fojialarga sabab bo'ladigan tabiat hodisasidir". O'z navbatida, yildan-yilga soni ortib borayotgan favqulodda vaziyatlar, ularni bartaraf etishga sarflanayotgan iqtisodiy xarajatlar muammoga alohida yondashishni taqozo etadi. Bunda sodir bo'lish ehtimoli mavjud favqulodda vaziyatlarni oldindan bashorat qilish, aholini xavfdan ogoh etish, oldini olish va undan himoyalani tadbirlariga o'rgatishga ko'proq e'tiborni qaratish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Fuqarolarni turli ta'sirlardan saqlash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir. Mamlakatimiz yer silkinishi, yer surilishi, sel, suv toshqini kabi tabiiy ofatlar bo'lishiga moyil hudud bo'lganligi sabab texnogen avariylar va ekologik muvozanatning buzilishi natijasida uning oqibatlaridan fuqarolar mehnat muhofazasi, xalq xo'jaligi tarmoqlari, moddiy resurslar va tabiatni asrash, zarar ko'rgan hududlarda qutqarish-tiklash ishlarini olib borish muhim vazifalardan hisoblanadi. Ta'kidlangan vazifalarni hal qilishda O'zbekiston mintaqasi uchun xos bo'lgan tabiiy ofatlar, ishlab chiqarish avariylari va yuzaga keladigan ekologik vaziyatlarni fuqaro hayot faoliyatidagi mehnat xavfsizligini chuqur tahlil etish natijasidagina har qanday vaziyatlardagi moddiy va ma'naviy yo'qotishlar ko'lamini qisqartirishga erishish mumkin. Inson va tabiat o'rtasida yoki boshqa sabablardan kelib chiqadigan vaziyatlarda inson ojizlik qilishi mumkin. Shu jihatdan yondashilganda, uzluksiz ta'lim, xususan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarda xavfsizlik tizimi yuzasidan bilimlarni shakllantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish taqozo etiladi:

1) talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash ko'nikmasini rivojlantirishga doir tizimni aniqlashtirish;

2) talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga doir ta'lim maqsadi, mazmuni, vosita va metodlarni belgilash;

3) talabalar hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash ko'nikmasini rivojlantirish tizimining pedagogik shart-sharoitlarini o'rganish;

4) talabalarni uzluksiz hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash amaliyotini takomillashtirish uchun ilmiy asoslangan o'quv adabiyotlarni yaratish va pedagogik amaliyotga joriy etish.

O'qitish jarayonida ta'lim oluvchilar xavfsizligini ta'minlash ta'lim muassasalarida baxtsiz hodisalar sonini kamaytirish; xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilishga bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish; xavfsizlikka ongli ravishda munosabat bildirish; yangi xavfsizlik vositalarini ommalashtirish; o'quv jarayoniga zamonaviy mehnat muhiti va xavfsizlik vositalarini joriy etish; har bir ish joyida sog'lom va xavfsiz mehnat hamda o'quv sharoitlarini yaratishni taqozo etadi. Hayot faoliyati insonning o'z manfaatlarini qondirish maqsadidagi kunlik mehnat faoliyati va dam olishi, ya'ni insoniyat yashashining muhim shartidir. Inson yashash davrida moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish maqsadida yashash makoni hamda muhitini o'zgartiradi. Shu sababli, Hayot faoliyati xavfsizligi kursi inson organizmi bilan uni o'rab turgan muhit o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'lanish va ta'sirni o'rganadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi kursi atrof-muhit va insoniyatga tahdid soluvchi xavflar tabiati, yuzaga kelish va ta'sir etish qonuniyatlari, yuzaga kelishining oldini olish tadbirlari, himoyalash usullari va xavf ta'sirida yuzaga kelgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish yo'llarini o'rganuvchi ilmiy bilimlar sohasi hisoblanadi. Kurs insonni texnosferadagi antropogen va tabiiy xavflardan himoyalashga qaratilgan tadbirlar, vositalar tizimini o'rganishni o'z ichiga olib, uning texnosfera bilan qulay va o'zaro xavfsiz ta'sirini tadqiq qiladi. Hayot faoliyati xavfsizligi sohasidagi amaliy vazifalar yo'nalishlari baxtsiz hodisalarning oldini olish, inson hayotida sodir bo'ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalash yo'llarini o'rganishga qaratilgan nazariy va amaliy kursdir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Insonning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me'yorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish va rivojlantirish muhim o'rin to'radi.

Kursni o'qitishdan asosiy maqsad insonning barcha ko'rinishdagi faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, faoliyat xavfsizligini ta'minlash hamda ishlab chiqarishdagi faoliyatida xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish bo'yicha nazariy bilim berish orqali bakalavrlarning (mutaxassis) kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat. Bo'lajak mutaxassislar kursni o'rganish jarayonida quyidagilarni nazariy jihatdan o'zlashtirishlari shart:

- inson faoliyat xavfsizligini xarakterlovchi asosiy tamoyillar, metod va vositalar tizimi, ularning tahlili, optimallashtirilgan dasturlar, faoliyat xavfsizligini boshqarish yo'llari;
- faoliyat xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari, hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha qonunlar, standartlar, nizomlar, ko'rsatmalar, qurilish va sanitariya me'yorlari hamda ularni hayotga tatbiq etish;
- sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo'yicha rejali tadbirlar ishlab chiqish, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilish, ularni tekshirish va hujjatlashtirish tartibini

o'zlashtirish;

– inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash metodlarini qo'llash;

– xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy himoya vositalari bilan ishchi-xizmatchilarni ta'minlash tartibi va ulardan foydalanish;

– sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish bo'yicha sanitar-gigienik tadbirlar ishlab chiqish, ishlab chiqarishdagi texnika vositalari, mashina-mexanizmlar, qurilma va moslamalardan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari bilan tanishish;

– yong'in kelib chiqish sabablari, uning oldini olish, o'chirish vositalari va usullari.

Ta'kidlangan nazariy bilimlarga asoslangan holda har bir talaba kurs mazmunini o'rganish bilan birga quyidagi amaliy umumkasbiy kompetentlikka ega bo'lishlari shart:

– xavfli va zararli ishlab chiqarish jarayonlarini baholash, baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularning sabablarini aniqlash, mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish;

– ishlab chiqarish xonalari va ish joyining sanitar-gigiyenik holatini belgilovchi ko'rsatkichlarni (gazlanganlik va changlanganlik darajasi, shovqin va titrash, yoritilganlik, harorat, nisbiy namlik, havoning harakatlanish tezligi, havo bosimi va b.) aniqlovchi asbob-uskunalar va jihozlardan foydalanishni bilish;

– o't o'chirish texnikalarini ishlata olish;

– favqulodda vaziyatlarda obyektlarining barqarorligini baholash va tadbirlar ishlab chiqish;

– iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, jumladan, aloqa, axborotlashtirish va kommunikatsiya sohalari obyektlarida rahbar hamda ishchi-xodimlarni mehnat muhofazasi va favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik choralari bo'yicha o'qitish hamda ma'naviy tayyorlash;

– jarohatlanganda yoki shikastlanganda, favqulodda vaziyatlarda o'ziga va o'zgalarga birinchi yordam ko'rsatish.

Yuqorida qayd etilganlar asosida quyidagilar Hayot faoliyati xavfsizligi kursining asosiy tushunchalari hisoblanishi ta'qkidlash mumkin:

Faoliyat – bu ma'lum darajada inson va tabiat hamda antropogen muhitning maqsadga yo'naltirilgan o'zaro ta'sir jarayoni.

Xavf – tirik yoki o'lik materiyaning insoniyat sog'ligi, tabiat va moddiy boyliklarga zarar yetkazuvchi, baxtsiz va ko'ngilsiz hodisalarga olib keluvchi salbiy xususiyatlar. U energiyaga ega bo'lgan kimyoviy yoki biologik faol komponentlarni o'zida mujassamlashtirgan barcha tizim hamda inson hayot faoliyati sharoitiga javob bermaydigan tavsiflarni o'zida saqlaydi.

Xavfsizlik – obyektga ta'sir etuvchi turli xil modda, material, energiya va ma'lumotlar oqimining maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmaydigan holati. Har qanday xavf aniq bir obyektga ta'sir etgandagina real xavf hisoblanadi. Turli xil xavflar oqimidan himoyalangan obyekt deganda inson, jamiyat, davlat, tashkilot (korxona, muassasa), tabiat, dunyo va fazo kabi atrof-muhitning har qanday komponentini tushunish mumkin.

Baxtsiz hodisalar sabablari – faoliyat davrida ma'lum shart-sharoitlar asosida yuzaga keladigan potensial xavf yoki baxtsiz hodisalarning sabablari amaldagi xavfsizlik qonun-

qoidalari, me'yorlar, standartlar, nizomlar va boshqa shu kabi xavfsizlikni ta'minlovchi talablarning buzilishi. Baxtsiz hodisalarning sabablari texnikaviy, tashkiliy, sanitar-gigienik va psixofiziologik kabi turlarga bo'linadi.

Yashash (faoliyat) muhiti – inson hayoti, faoliyati, sog'ligi va nasliga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita, birdan yoki uzoq vaqt davomida ta'sir etuvchi xavfli omillar majmuyi bilan xarakterlanuvchi muhit.

Xavfli omillar fizikaviy, kimyoviy, biologik, psixofiziologik va ijtimoiy xarakterda bo'lishi mumkin. Yashash muhiti biosfera, texnosfera, hudud, ishlab chiqarish muhiti, maishiy muhit va boshqa ko'rinishlarda bo'ladi.

Atrof-muhit – bu insonni o'rab turgan, uning hayot faoliyati, sog'ligi va nasliga to'g'ridan to'g'ri yoki masofadan ta'sir etishga qobiliyatli omillarning (jismoniy, kimyoviy, biologik, informatsion, ijtimoiy) shartli yig'indisi.

Inson va atrof-muhit uzluksiz o'zaro ta'sirda bo'lib, doimiy harakatdagi “inson – atrof muhit” tizimini tashkil etadi. Dunyoning evolyusion jarayonida bu tizimni tashkil etuvchilar uzluksiz o'zgarib bordi. Inson mukammallashdi, Yer shari aholisi va uning oqimi o'sishi jamiyatning ijtimoiy asosi o'zgarishiga ta'sirini ko'rsatdi. Natijada inson o'zlashtirgan yer yuzi va yer osti hududi kattalashdi. Tabiiy muhit jamiyatning o'sib borayotgan ta'sirini boshdan kechirmoqda. Inson tomonidan sun'iy yaratilgan maishiy, shahar va ishlab chiqarish muhiti paydo bo'ldi. Tabiiy muhit o'zi mukammal bo'lib, inson ishtirokisiz mustaqil mavjud bo'ladi va rivojlana oladi. Inson tomonidan yaratilgan boshqa barcha borliq muhiti mustaqil rivojlana olmaydi va ular paydo bo'lganidan so'ng eskirish va yemirilishga mahkum bo'ladi. Insoniyat o'zining dastlabki rivojlanish bosqichida tabiiy atrof-muhit bilan o'zaro uyg'un harakat qilgan. Atrof-muhit, asosan, biosfera, yer osti, gallaktika va cheksiz koinotdan tashkil topgan.

Xulosa va takliflar:

Ta'lim muassasalarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish bo'yicha o'quv jarayonini takomillashtirish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi. Maktablar va universitetlar davom etayotgan o'qitish va rivojlanishni birinchi o'ringa qo'yishlari kerak, bu fikr-mulohazalar va o'tgan tajribalardan olingan saboqlarni o'z ichiga oladi. Trening tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun resurslar va infratuzilmaga sarmoya kiritish bardoshli va tayyor jamoalarni qurish uchun juda muhimdir. Xavfsizlik va tayyorgarlik madaniyatini tarbiyalash orqali ta'lim muassasalari o'z talabalari, xodimlari va o'qituvchilarini favqulodda vaziyatlardan yaxshiroq himoya qilishlari mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar ta'lim sharoitida turli xil o'qitish usullari va strategiyalarining uzoq muddatli samaradorligini baholashga qaratilishi kerak. Qiyosiy tadqiqotlar muvaffaqiyatni o'lchash uchun eng yaxshi amaliyot va mezonlarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, gamifikatsiya va virtual haqiqat simulyatsiyasi kabi innovatsion yondashuvlarni o'rganish manfaatdor tomonlarni favqulodda tayyorgarlik harakatlariga jalb qilish va kuchaytirish bo'yicha yangi tushunchalarni taklif qilishi mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ёрматов Ғ.Ё. ва бошқалар. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги. Ўқувқўлланма. Т.:2005.
2. Йўлдошев Ў ва бошқалар. Меҳнатни муҳофаза қилиш. -Т.: 2005.
3. Безопасность жизнедеятельности. Под.ред. Михайлова Л.А. – Минск, 2007. 301 с.
4. Белов С.В. "Безопасность жизнедеятельности". Высшая школа. -М.: 1999.
5. “Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликларидан мажбурий давлат ижтимоий суғуртаси тўғрисида” ги қонун. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 37-38-сон.
6. “Фуқаролар соғлиғини сақлаш тўғрисида”ги қонун. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. –Т.: 2007 й., 40-сон.